

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

ABDULLAYEVA MUNOJOT MUXTOROVNA

**TURLI TIZIMDAGI TILLARDA GENDER MUNOSABATLARNI IFODA
ETUVCHI MAQOLLARNING LISONIY TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Abdullayeva Munojot Muxtorovna

Turli tizimdagi tillarda gender munosabatlarni ifoda etuvchi maqollarning lisoniy tadqiqi..... 3

Абдуллаева Муножот Мухторовна

Лингвистическое исследование пословиц, выражающих гендерные отношения в разносистемных языках..... 31

Abdullaeva Munojot Mukhtorovna

A Linguistic Study of Proverbs Expressing Gender Relations in Languages of Different Systems..... 61

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 66

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

ABDULLAYEVA MUNOJOT MUXTOROVNA

**TURLI TIZIMDAGI TILLARDA GENDER MUNOSABATLARNI IFODA
ETUVCHI MAQOLLARNING LISONIY TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Fil1971 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Ikromxonova Firuza Ikromovna filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Qodirova Fazilat Shukurovna filologiya fanlari doktori, dotsent Nasrullayeva Nafisa Zafarovna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "29" *Oktyabr* soat 13⁰⁰ *dagi* majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 21-uy. Tel.: (998 71) 230-12-91, (99871) 230-12-92; e-mail: www.uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (*113* raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 21-uy. Tel.: (99871) 230-12-91, (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "14" *Oktyabr* kuni tarqatildi.

(2024-yil "14" *Oktyabr* *dagi* 30 raqamli reyestr bayonnomasi)



I.M. Tuxtasinov

I.M. Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

X.B. Samigova

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Xalq og‘zaki ijodini o‘rganish orqali millatning qadriyatlarini, xalqning madaniyatini qaytadan kashf qilish mumkin, shuning uchun ham jahon tilshunosligida bu sohani o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Asrlar davomida jonli so‘zlashuv va o‘zaro nutqiy munosabatlarda foydalanibgina qolmay, balki badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotlarda ham doimiy ravishda qo‘llanilib kelingan hamda bugungi kunda ham juda faol bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi janrlaridan biri bu maqoldir. Maqollarni, umuman, xalq ijodiyotini o‘rganish, tadqiq qilish, bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tilshunoslik sohasida gender komponentli maqollarning o‘rganilishi juda muhimdir. Bu tadqiqotlar jamiyatdagi gender rollari, qadriyatlar va stereotiplar haqida chuqurroq tushuncha berib, ijtimoiy-madaniy tahlillarda keng qo‘llaniladi. Tilshunoslikda gender tadqiqotlari til va jamiyatdagi gender rollarining o‘zaro ta‘sirini o‘rganadi. Til gender identifikatsiyasini shakllantirish va ifoda etishda muhim vosita hisoblanadi. Gender asosida farqlanuvchi til ishlatish usullari, nutqiy xususiyatlar va leksik tanlovlar bu sohadagi tadqiqotlarning asosiy mavzularidan biridir.

Dunyo tilshunosligida maqolshunoslik (paremiologiya) sohasida ko‘plab izlanishlar olib borilgan bo‘lib, turli xalqlarning maqol va matallarini o‘rganish, tadqiq qilish va ularni qiyosiy tahlil qilish ishlari amalga oshirilgan. Chunonchi, turli tillarda maqol va matallarning to‘plamlari tuzilib, ularning lug‘atlari va ensiklopediyalari nashr etilgan. Bu asarlar xalq og‘zaki ijodiyotining boyligini saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish uchun muhim ahamiyatga ega. Dunyo folklorshuslari va paremiologlari tomonidan turli xalqlar maqollarining qiyosiy tahlili o‘tkazilib, ular o‘rtasidagi umumiylik va farqlar aniqlangan. Bu esa, til va madaniyatlararo o‘xshashlik hamda o‘ziga xosliklarni aniqlashda yordam beradi. Shu bilan birga, maqolshunoslik (paremiologiya) bo‘yicha turli tashkilotlar, doimiy forumlar va konferensiyalar mavjud bo‘lib, bu tadbirlar orqali mutaxassislar o‘zaro tajriba almashadilar, o‘zlarini izlanishlari natijalarini taqdim etadilar va yangi ilmiy g‘oyalarni muhokama qiladilar bularga, **Proverbium Society (Maqol Jamiyati), International Society for Folk Narrative Research (ISFNR), International Association of Paremiology (AIP-IAP), Interdisciplinary Colloquium on Proverbs (ICP) at Tavira va Proverbium Journal** bu ilmiy jurnal maqollar hamda paremiologiya sohasidagi tadqiqotlarni nashr etadi.

O‘zbek tilshunosligida maqolshunoslik (paremiologiya) sohasida ko‘plab muhim ilmiy ishlar amalga oshirilgan. O‘zbek tilida maqollar va matallarni to‘plab, nashr etish bo‘yicha ko‘plab lug‘atlar va yirik to‘plamlar tuzilgan. O‘zbek olimlari maqollar va matallarning turlarini, ularning tuzilishini, qoidalarini va boshqa lingvistik xususiyatlarini chuqur tadqiq etishgan. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan o‘zbek milliy madaniyatini saqlash va rivojlantirishda, jumladan, maqolshunoslik sohasida ko‘plab tadbirlar tashkil etgan. Jumladan, Navro‘z, Mustaqillik kuni va boshqa milliy bayramlar doirasida maqollarga bag‘ishlangan tadbirlar hamda ko‘rgazmalar o‘tkaziladi. Bu tadbirlar

jarayonida an'anaviy o'yinlar, ko'rgazmalar va badiiy chiqishlar orqali xalq maqollari targ'ib qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-sonli "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.01.2022-yildagi 34-sonli "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, shu bilan birga, oxirgi yillarda respublikamizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi chet tillarini o'rganishga bo'lgan e'tiborning oshishi, olib borilayotgan tadqiqotlarda chet tillarini o'zbek tili bilan qiyoslab o'rganish, tilimizning nufuzini jahon miqyosida oshirish, uning lisoniy imkoniyatlarini to'laqonli ochib berish kabi muhim vazifalarni belgilab berdi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida gender munosabatlari tahlili¹da maqollarga alohida e'tibor qaratiladi. Dastlab paremiyalarni yig'ish va qayd etib borish eramizdan avvalgi 384-322-yillarda yashab o'tgan, grek faylasufi Aristotel tomonidan amalga oshirilgan. Paremiyalarning struktural, semantik, pragmatik jihatlariga doir tadqiqotlar² ham diqqatga sazovordir. Shuningdek, paremiyalarni lingvokulturologik nuqtayi nazardan o'rganilishida rus olimlari tadqiqotlarini alohida ta'kidlash mumkin. Rossiyada paremiyalarni to'plash XVII asr oxiridan boshlangan.

¹ Ashmore R.D., Del Boca F.K. The Social Psychology of Female-male Relations: A Critical Analysis of Central Concepts. – N.Y., 1986. – 286 p.; Clifton A.K., McGrath D., Wick B. Stereotypes of women: a single category? // Sex roles, 1976. – № 2. – P. 125-142; Coates J. Women, Men and Language (A Sociolinguistic account of sex differences in language). – London-New York: Longman, 1986. – 346 p.; Gleason J.B. Sex differences in parent-child interaction // Language, gender and sex in comparative perspective. – Cambridge, 1987. – P. 115; Eckert, P. & McConnell-Ginet, S. Language and Gender. – New York: Cambridge University Press, 2003. – 334 p.

² Барли Н. Структурный подход к пословице. – М., 1984. – 13 с.; Беляевская Е.Г. Семантическая структура слова в номинативном и когнитивном аспектах (Когнитивные основания формирования и функционирования семантической структуры слова). Автореферат дис. ... доктора филол. наук. – М., 1992. – 39 с, Кубрякова Е.С. О тексте и критериях его определения // Текст. Структура и семантика. Т. 1. – М., 2001. – С. 72-81; Хакимова Г.Ш. Тендерный фактор в английских паремиях в сопоставлении с русскими. Автореф. дис.... канд. филол. наук 10.02.04 / Гульнара Шарифулловна Хакимова. – Казань, 2003. – 24 с.; Горбань И.В. Роль паремий в речевых актах (на материале языка русской художественной литературы). Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Саратов, 2010. – 26 с.

Paremiyalarning tarkibiga kiruvchi maqollar o‘zbek olimlari A. Mamatov, Sh. Raxmatullayev, Sh. Almamatova, I. Tuxtasinov, G. Ergasheva³ va boshqalar tomonidan ma’lum darajada tadqiq etilgan. Paremiologiya, ya’ni maqol, matal, aforizmlarni o‘rganuvchi fan sifatida XX asrning birinchi yarmida rus tilshunosligida paydo bo‘lgan.

Bu borada, o‘zbek tilshunosligida B. Sarimsoqov maqollarning didaktik ahamiyati, B. Soatov maqollarning she’riy janrlar aks ettirishi, O‘. Yusupov maqollarning lingvokulturologik ma’nolari, M. Asronova paremiyalarning diskursiv xususiyatlari xususidagi tadqiqotlari bilan paremiyalarning o‘rganishda o‘z xissalarini qo‘shdilar⁴.

Biroq paremiyalar nafaqat o‘zbek, balki butun dunyoda ommalashgan ingliz tili materiallari asosida qiyosiy aspektda gender munosabati nuqtayi nazaridan o‘rganilmagan, qolaversa, maqollarning ingliz va o‘zbek tillariga doir matnlarda lingvokulturologik jihatdan hali hanuz qiyosiy tahlili amalga oshirilmagan. Mazkur tadqiqotda ingliz, rus va o‘zbek tillariga doir paremiyalar, jumladan, maqollar gender munosabati materiallari asosida tadqiq etiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o‘rtasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlar” ilmiy loyihasining “Ingliz va o‘zbek tillarining qiyosiy tipologiyasi” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi gender munosabatli maqollarni lisoniy tahlil etish orqali ularning umumiy hamda o‘ziga xos jihatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon va o‘zbek tilshunosligida gender munosabatlarni ifoda etuvchi maqollarni lisoniy tadqiq etish hamda gender nazariyalarini tizimli ravishda sharhlash;

ingliz, rus va o‘zbek tillarida gender munosabatlarni ifodalovchi maqollarni struktur xususiyatlarini tahlil qilish;

³ Маматов А.Е. Семантико-стилистические особенности эмоционально-оценочных фразеологических единиц узбекского языка. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1988; Рахматуллаев Ш. Лексикология билан фразеология. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1992. – Б. 49-186; Алмаматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили. Филол. фан. номз. дис... автореф. – Тошкент, 2008. – 23 б.; Тухтасинов И.М. Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Ташкент, 2011. – 30 с.; Эргашева Г.И. Турли тизимдаги тилларда гендерга оид терминологиянинг шаклланишида лингвистик ва экстралингвистик омиллар. Филол. фан. д-ри. ... автореф. – Тошкент, 2018. – 60 б.

⁴ Саримсоқов Б. “Баландпарвоз сўзлар”. – Тошкент, 1986; Соатов Б.А. Ўзбек халқ мақолларининг жанр ва шеърий хусусиятлари. – Т., 1990. – 53 б.; Шомақсудов С.Х., Шорахмедов С.Х. Маънолар маҳзани. – Т., 2001; Донишманд М.В. Гендер белгиси лексемалар тизимини қайта қуриш (мақоллар асосида) / М.В.Дано // Филология фанлари. Назария ва амалиётга оид саволлар. – Т., 2017. – № 10 (76). 3-қисм. – Б. 142-146; Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультура атамалари хусусида / Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. Илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2011. – Б. 49-55; Asronova M. O‘zbek va ingliz xususiy diskurslarida paremiyalarning kognitiv-pragmatik xususiyatlari. Avtoref. fil. fan. b. falsafa. dok. – Andijon, 2022. – 52 b.

gender komponentli maqollarni ingliz, rus va o'zbek tillarida semantik tasniflash, gender streotiplari ta'sirida o'ziga xos ma'no aks ettirish qonuniyatlarini o'rganish;

chog'ishtirilayotgan tillarda GMIEM⁵larning assimetrik va simmetrik xususiyatlarini yoritib berish;

ingliz, rus va o'zbek tillarida antroponimlar orqali ifoda etilgan GMIEMlarning qiyosiy tahlil qilish;

ingliz, rus va o'zbek tillarida gender munosabatli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etish;

ingliz, rus va o'zbek tillarida gender komponentli maqollarning tarjima muammolarini o'rganish hamda ularni bartaraf etish usullarini aniqlash.

Tadqiqotning obyektini ingliz, rus va o'zbek tillarida gender munosabatlarni ifoda etuvchi maqollar.

Tadqiqotning predmetini ingliz, rus va o'zbek tillaridagi GMIEMlarning struktural-semantik, stilistik, lingvokulturologik xususiyatlari va tarjima muammolari tahlili tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni olib borish jarayonida qiyosiy-chog'ishtirma, tavsiflash, tasniflash, oppozitsion, statistik, stilistik va kross-madaniy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz, rus va o'zbek tillarida gender munosabatlarni ifoda etuvchi maqollarning struktural hamda semantik jihatlari "grammatik struktura" modeli asosida tahlilga tortish orqali, GMIEMlarning struktural ko'rinishlari universal xususiyatga ega ekanligi, ayrim maqollarning struktural ko'rinishlari muayyan bir tilga nisbatan unikal bo'lishi misollar orqali dalillangan;

ingliz, rus va o'zbek tillarida gender munosabatlarni ifoda etuvchi maqollarning assimetrik hamda simmetrik xususiyatlarini ochib berish orqali gender lakunarligi hodisasining maqol matnida gender juftliklari bo'lmagan, hamda maqolda genderni aniq ifoda etuvchi leksik birlik qatnashmagan nominatsiyalarning mavjudligi ularni gender lakunar birliklari sifatida tavsiflashga imkon berilish kabi xususiyatlari ochib berilgan;

ingliz, rus va o'zbek tillari gender munosabatlarni ifoda etuvchi maqollarida qo'llanilgan antroponimlarning etimologik xususiyatlarini ochib berish orqali gender munosabatlarini ifoda etuvchi maqollarning lingvokulturologik xususiyatlarining tadqiqi uch tildagi xalqlarning ijtimoiy rollari, qadriyatlarini, oilaviy munosabatlari xalqning mental xususiyatlari, diniy dunyoqarashlari orqali aks ettirilishi antroponimik maqollarni chog'ishtirish orqali ochib berilgan;

chog'ishtirilayotgan tillarda gender munosabatlarni ifoda etuvchi maqollarni tarjima qilishda maqollarning struktural, semantik, lingvokulturologik xususiyatlarini, turli tizimli tillarda voqelanishining chog'ishtirma tadqiqi, ularning umumiy va o'ziga xos jihatlari yorqin namoyon etishda adaptatsiya (Creative Adaptation) hamda kultural ekvivalent (Cultural Equivalent) kabi tarjima usullaridan foydalanish samaradorligi aniqlangan;

⁵ Bundan buyon "Gender munosabatlarni ifoda etuvchi maqol" – GMIEM deb yuritiladi.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

xorijiy tillar fakultetlarining yuqori bosqich talabalari va magistrantlariga paremiologiya, lingvokulturologik, kommunikativ lingvistika bo'yicha ma'ruzalar va maxsus kurslar o'qitishda foydalanilgan;

amalga oshirilgan tadqiqotda matn tahlili uchun muhim bo'lgan paremiyalarga taalluqli gender munosabatli paremik birliklarning semantik tavsiflash va tasniflash metodikasi ishlab chiqilgan;

ingliz, rus va o'zbek tillarida paremiyalarning gender munosabatlariga ko'ra uzatilayotgan axborotni adresatga yetkazishda jins kategoriyasini aniqlashtiruvchi parametrlar tizimi aniqlangan;

tadqiqot tilshunoslikda pragmatik va lingvokulturalogik aspektlarni o'qitishda amaliy ma'lumotlar berish hamda o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda asos bo'lib xizmat qilishi nazarda tutilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada foydalanilgan nazariy ma'lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tanlangan manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, qo'yilgan masalalarning aniqligi, qo'llanilgan yondashuv usullari, keltirilgan tahlillar chog'ishtirish, tavsiflash, tasniflash, komponent tahlil hamda statistik tahlil metodlari yordamida asoslangani, nazariy fikr va xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda ingliz, rus va o'zbek tillaridagi gender munosabatli maqollar chog'ishtirib tadqiq etilgan bo'lib, bu ish paremiya nazariyasi, matn tilshunosligi, chog'ishtirma tilshunoslik va lingvokulturologiyaga oid ilmiy-nazariy qarashlarni to'ldirish hamda kengaytirishda ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatli ingliz, rus va o'zbek tillarida gender munosabatining paremiyalardagi ifoda munosabatlari tadqiqi orqali chiqarilgan xulosalar gender munosabati masalasida muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berish, leksikologiya, frazeologiya, uning bir qismi bo'lgan paremiologiya bo'limlari bo'yicha maxsus kurslar o'qish, ma'ruza matnlari tayyorlash, o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz, rus va o'zbek tillarida gender munosabatini ifodalovchi maqollarning chog'ishtirma tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar hamda amaliy takliflar asosida:

ingliz, rus va o'zbek tillaridagi gender munosabatlarini ifoda etuvchi maqollarda qo'llanilgan antroponimlarning (inson nomlari) etimologik xususiyatlarini keng va batafsil yoritilishi hamda kompleks tahliliga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining №43 /3C-1 "Global Citizenship Education Training in Tashkent" loyihasi doirasida foydalanilgan. (O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2022 yil 1 dekabrda 01/713-son ma'lumotnomasi) Natijada, GMIEMlarning lisoniy kelib chiqish, turli xalqlarning madaniy va tarixiy jarayonlarini kuzatish, jamiyatdagi ma'rifat va ijtimoiy qadriyatlar haqida ma'lumot olish, turli mintaqalarga xos etnik va regional xususiyatlarni kuzatish kabi imkoniyatlarni yaratdi;

ingliz, rus va o'zbek tillarida GMIEMlarning structural va semantik jihatlari tasniflangan, genderning madaniy metafora sifatida aks etishi va gender stereotiplari tasnifi tavsiflanganligi va chog'ishtirilayotgan tillarda maqollarni tarjima qilishda semantik va funksional-stilistik mazmuni saqlashda muqobillar, analoglar, to'liq ekvivalent, qisman ekvivalent, ta'riflovchi tarjima usullaridan foydalanish aniqlanib, dalillanganligi sababli berilgan ilmiy xulosa va tavsiyalaridan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining loyiha va tadbirlari, jumladan, "Ona tilim - faxrim, g'ururim!", "Til — millatning ma'naviy boyligi", "Til — millat ma'naviyatining muqaddas ko'zgidir", "Qadring baland bo'lsin ona tilim!", "O'zbek tili — milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli", "Ona tilim — Onajonim tili bu" nomli loyihalari doirasida foydalanilgan. (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining "O'zbekiston" 2023 yil 27 yanvardagi 01-03/97 - son ma'lumotnomasi). Natijada, tayyorlangan dissertatsiya ilmiy natijalariga ko'ra, ingliz, rus va o'zbek xalqlarining maqollarida yangidan shakllangan, insonning nutq faoliyatini o'rganishga, ularning nutq aktidagi o'rnini, kommunikativ ta'sirini, so'zlovchi va tinglovchi nutqidagi turlicha munosabatlarni lisoniy belgilarda ifodalanishining o'rganilishi xalqlarning maqollari tahlili orqali ochib beradi va sohalararo qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga olib keladi;

ingliz, rus va o'zbek tillarida GMIEMlarning assimetrik va simmetrik xususiyatlari ochib berishda, ularning tabiati, ular orqali voqealanuvchi makon, zamon, harakat kabi tushunchalarni o'zida mujassam etgan universal hodisadir. Simmetriya gender munosabatli maqollarni sintaktik qurilishida muntazamlilikni, gap qurilishini saqlab qoluvchi tamoyillarga asoslanganligini "O'zbekiston" teleradiokanali ko'rsatuvlarning senariylarini tayyorlashda, xususan, "O'zbekiston" teleradiokanalida efirga uzatiladigan "Munosabat", "Munozara maydoni" kabi ko'rsatuvlarda foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali davlat muassasasining 2023 yil 8 fevraldagi 06-28-288-son ma'lumotnomasi). Natijada, assimetriya tamoyili bu muayyan bir jumla yoki gapni ataylab struktural ko'rinishini buzilishi ekanligi. Bunda *SVO* modelidagi gender komponentli maqollar turlicha *SOV*, *OVS*, *OSV*, *VOS* va *VSO* kabi modellar orqali ifoda etiladi. *SOV* modelidagi GKM esa *SVO*, *OVS*, *OSV*, *VOS* va *VSO* modellari orqali ifodalanishi. Chog'ishtirilayotgan tillarda bunday assimetrik buzilish GMIEMning emotsionallik, ekspressivlik xususiyatlarini kuchaytirish uchun qo'llanilishi haqidagi xulosalarga olib keladi;

GMIEMlarning lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etishda milliy va madaniy jihatlari qayd etilgan hamda maqollarda ularning ifoda etilishi va o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan bo'limdan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining №43 /3C-1 "Global Citizenship Education Training in Tashkent" loyihasi doirasida foydalanilgan. (O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2022 yil 1 dekabrda 01/713-son ma'lumotnomasi) Natijada, ingliz, rus va o'zbek maqollarining lingvokulturologik xususiyatlari va ularning tarjimadagi muammolari, tahlil usullari va tamoyillari madaniyatlararo muloqot, tolerantlik va gender tengligi kabi tamoyillarni yetkazib berishga keng xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 12 ta ilmiy ish, jumladan, 4 ta maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, yuqori impak faktorli xorijiy jurnallarda 2ta, 4 tasi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda hamda 2 tasi xorijiy ilmiy-amaliy konferensiya jurnallarida maqolalar nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 156 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Gender munosabatlarni ifoda etuvchi maqollarni o'rganishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida “gender”, “jins”(rod) tushunchalari bilan bog'liq nazariy masalalar muhokama qilingan, ijtimoiy diskursdagi frazeologik intensivatorlar (maqollar) tadqiqi uchun asos bo'lgan muhim ilmiy yondashuvlar ko'rib chiqilgan.

Gender bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarining jadal rivojlanishi “gender” tushunchasiga aniqlik kiritish zaruratini keltirib chiqardi. Zamonaviy sotsiolog va faylasuflar “gender” hamda “jins” tushunchalarini bir xil emas, balki farqli tushunchalar deb ta'kidlaydi. Ularning fikricha, “jins” biologik hodisa hisoblanadi va odatda, odamlarning fiziologik xususiyatlarini belgilash uchun ishlatiladi. Biroq biologik farqlarga qo'shimcha ravishda “gender” deb ataladigan ijtimoiy rollar, faoliyat shakllari, xulq-atvor va shaxsiy xususiyatlardagi farqlar mavjud⁶.

“Gender”, atamasi “erkak” va “ayol” tushunchalarining ijtimoiy, madaniy, psixologik jihatlarini tavsiflash va uni zidlash uchun ishlatiladi, ya'ni “odatiy va xarakterli xususiyatlar, me'yorlar, stereotiplar, rollarni tashkil etuvchi hamma narsani ajratib ko'rsatishda jamiyatda ham erkak ham, ayol kishilar uchun maqbuldir”⁷.

Ba'zi tadqiqotchilar “gender” tushunchasi lingvistik tadqiqotlarda boshqa sohalarga qaraganda kechroq o'rganish obykti sifatida qarala boshlaganini ta'kidlaydi. Chunki XX asrning 60-70-yillaridagina tilshunos olimlar inson nutqidagi jins xususiyatlarining o'rni va uning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilishni boshlagan. Bu

⁶Насруллаева Н.З. Гендерные концепты в английской и узбекской фразеологии. Монография. – Ташкент: Фан ва технологиялар, 2018. – 144 с.

⁷Пушкарёва Н.Л. Гендерная лингвистика и исторические науки // Этнографическое обозрение, 2001. – № 2. – С. 16.

izlanishlar dastlab, Amerika va Yevropa tilshunoslari tomonidan olib borilgan. Ko'p o'tmasdan rus tilshunoslari, so'ng o'zbek tilshunosligi vakillari o'zbek va boshqa tillarni chog'ishtirish asnosida gender tadqiqotlar olib bora boshladi.

Genderning tilda aks etishining eng ifodali va rang-barang vositalari frazeologik birliklar, maqol va matallar (paremiyalar) hisoblanib, ularda muayyan ijtimoiy guruhning etnik-madaniy xususiyatlari, an'analari, madaniyati va tarixi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasida "til" va "jins" tushunchalarining o'zaro munosabatini o'rganishga e'tibor ortib, gender bilan bog'liq terminlar masalalarini ko'rib chiqish ehtiyoji paydo bo'la boshladi.

XX asr boshlarida "Til va jins" mavzusi F. Mautner⁸ va O. Jespersenning⁹ e'tiborini tortdi. Bu vaqtga kelib, tilda foydalanuvchilarning jinsi bilan bog'liq farqlar haqida muhim ma'lumotlar to'plangan hamda bu tilshunoslar va faylasuflarni Yevropa tillarida gender farqlar mavjudligi haqida o'ylashga majbur qilgan.

R. Lakoffning "Til va unda ayolning o'rni"¹⁰ asarida "ayol tili" atamasi birinchi marta qo'llangan. Bu ishda tilning antropotsentrik tuzilishi va tilda takrorlangan olam manzarasida ayol obrazi o'z tasdig'ini topgan.

Tilshunoslikda gender tushunchasini o'rganish bir qancha metodologik tamoyillarga asoslanadi. Biz ushbu ishda A.V. Kirilina sanab o'tgan gender tahlilning lingvistik tamoyillariga tayanamiz:

1. Gender tilda namoyon bo'ladi va u kommunikativ muloqotda o'zgaruvchan intensivlikning parametridir.

2. Genderning madaniy va ramziy tabiati metaforalarning boshqa turlari bilan bir xil tarzda ishlaydigan gender metaforasining paydo bo'lishini belgilaydi.

3. Tegishli til birliklarining gender jihatini o'rganishdan avval ular til birliklari sifatida tahlil qilinadi¹¹.

Respublikamizda gender tilshunosligi borasida dastlabki qadamlar sifatida N. Nasrullayeva¹², I. Tuxtasinov¹³ va G. Ergasheva¹⁴ kabi yosh olimlarning nomzodlik hamda doktorlik dissertatsiyalarini ko'rsatish mumkin. N. Nasrullayeva ingliz va o'zbek tillaridagi olamning frazeologik manzarasida gender konseptlarning shakllanishi masalasini yoritgan. I. Tuxtasinov ingliz va o'zbek tillariga xos badiiy matnda qo'llanadigan erkak hamda ayollarga xos fiziologik, ya'ni yuz va tana tuzilishi bilan bog'liq leksik birliklarning gender farqlanishini qiyosiy tipologik aspektda ochib bergan. G. Ergasheva ingliz va o'zbek tillarining

⁸ Mauthner F. Beitrage zu einer Kritik der Sprache. 3 Auflage. Band 1. Zur Sprache und Phsycologie. – Stuttgart und Berlin, 1921.

⁹ Jespersen J. The woman / the feminist critique of language / ed. by D.Cameron. – L., 1998. – 137 p.

¹⁰ Lakoff R. Language and Women's Place. Text and commentaries. Revised and expanded edition. – Oxford: University Press, 2004. – 309 p.

¹¹ Кирилина А.В. Гендерные исследования в отечественной лингвистике: проблемы, связанные с бурным развитием // Гендер: язык, культура, коммуникация. – М., 2002.

¹² Насруллаева Н.З. Инглиз тили фразеологик birliklar семантикасидаги гендер концепцияси. Филол. ф.д. (DSc) дисс. автореф. – Самарканд, 2020.

¹³ Тухтасинов И.М. Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Ташкент, 2011.

¹⁴ Эргашева Г.И. Инглиз ва ўзбек тиллар фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиёсий-типологик тадқиқи. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: НУУ, 2011.

frazeologik hamda paremiologik sistemasiga xos “erkak” va “ayol” tushunchalarining gender, pragmatik, kognitiv xususiyatlari, gender stereotiplarning o‘zbek frazeologiyasidagi tavsifi, o‘zbek paremiyalarining gender tahlili, ularning ingliz tilidagi ifodalari bilan o‘xshash yoki farqli jihatlari haqida fikr yuritadi.

Sh. Iskandarovaning ishlarida ayollar nutqiga xos ba’zi lingvistik xususiyatlar haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Muallif “xotin-qizlarga xos xususiyatlardan biri ular his-hayajonlarining, holatlarining tez yuzaga chiqishidir, bu xususiyatlar ko‘proq nutqiy vositalar bilan ifodalanadi”¹⁵, deya ta’kidlaydi.

F. Musayeva¹⁶ erkak va ayol jinsi ma’nosini ifodalovchi leksemalar haqida ma’lumot beradi. Ushbu sanab o‘tilgan tadqiqotlarda bir tomonlama, xususan, ayollar nutqining ba’zi lingvistik xususiyatlari yoritilgan.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi “erkak” hamda “ayol” gender tushunchalarini tashkil etadigan vositalarning turi, soni va semantik xususiyatlari bo‘yicha ma’lum farqlar mavjud bo‘lib, gender xususiyati erkak va ayolning xatti-harakatlarini turlicha baholaydi. Bu xalqlarning tilida va ongida mustahkamlangan, o‘rmasib qolgan ruhiy-madaniy va milliy-tarixiy xususiyatlar hamda jamiyatdagi gender rollarning taqsimlanishi va aynan shu jamiyatda qaysi jins vakillari hukmronlik qilishi, ustunligi haqidagi g‘oyalar bilan bog‘liq.

Alohida ta’kidlash kerakki, chog‘ishtirilayotgan har uchta tilda ham ijtimoiy darajani, kasb-korni ifodalovchi jins jihatdan farqlanadigan leksemalar juda ko‘p uchraydi va bu so‘zlar kontekstda ayol hamda erkaklarni aniq farqlash uchun xizmat qiladi.

Olamning paremiologik manzarasi olam lisoniy manzarasining bir qismidir.

Yevropa tilshunosligida maqollar ustida tadqiqodlar olib borgan olimlar sirasiga A. Teylor, W. Mieder, S. Arora, W. Esmann, A. Dundis, V. Fleischer, G. Burger, P. Wilson, T. Flonta, B. Wotjak, R. Eckert, R. Hessky, M. Kuusini¹⁷ kiritish mumkin.

O‘tgan asr paremiologi A. Teylorning ilmiy merosini yettita asosiy muammoga bog‘lash mumkin: 1) alohida maqollar bo‘yicha tarixiy va qiyosiy tadqiqotlar; 2) bibliografik sharhlar; 3) maqollarni o‘rganishga umumiy urinishlar;

¹⁵ Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони). Филол. фанл. докт.... дисс. автореф. – Тошкент, 1999.

¹⁶ Мусаева Ф. Выражение пола в узбекском языке / Сборник статей международной научной конференции, посвященной 500-летию армянского книгопечатания и 65-летию основания основания СНО ЕГУ. Том 4. Гуманитарные науки: история, философия, психология, востоковедение, международные отношения, политология, теология. – Ереван: Изд. ЕГУ, 2013. – 392 с.

¹⁷ Taylor Archer. The Proverb / Archer Taylor. – Cambridge: Harvard University Press, 1931. – 214 p.; Mieder W. Twisted Wisdom Modern Anti-Proverbs / W.Mieder. – Hobart, Tasmania (Australia) DeProverbio.com, 2002. – 260 p.; Arora S. The Perception of Proverbiality. De Proverbio, 1984. – 244 p.; Semiotische Studien zum Sprichwort. Simple Forms Reconsidered I. – Tübingen: Narr, 1984; The Wisdom of Many: Essays on the. Proverb. – New York: Garland, 1981; Fleischer W. (1994). Phraseology and Proverbs: Lexical Units and Text // B.Sandig (Hrsg.) EUROFRAS 92: Tendency of the Phraseology Research. Bochum: University publishing Brockmeyer. – P. 155-172; Burger H. (2010). Phraseology. – Berlin: Erik Smidt Publishing, 2010. – P. 239; Wilson F.P. The Oxford Dictionary of English Proverbs, 3rd ed. – Oxford: Oxford University Press, 1970; Flonta T. A Dictionary of English and Romance Languages Equivalent Proverbs, DeProverbio.com (December 10, 2011); Wotjak B. Paremia, 28: 2019. – P. 93-104. ISSN 1132-8940. ISSN electrónico 2172-10-68; Eckert P. Linguistic variation as social practice. Malden / MA: Blackwell, 2000; Hessky R. Phraseologie.Linguistische Grundfragen und kontrastives Modell deutsch-ungarisch, De Gruyter, 2017. – 144 p.

4) maqollar, matallar, qiyos va maqollar mazmunidagi umumiy motiv hamda mavzular; 5) maqol shakllari va turlarini o‘rganish; 6) maqollarni qiyoslash; 7) matal qoliplari va variantlarini o‘rganish.

R. Honek “A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom” asarida maqollarning o‘ziga xos 7 ta muhim xususiyatini ko‘rsatadi: *shaxsiy*: maqol faqat shaxsiy tajriba va tushunishga asoslangan subyektiv nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi; *formal*: birinchi navbatda, tilshunoslik, mantiq va semiotika metodlari hamda tushunchalaridan maqollarni aniqlash, tasniflash va semiotikadan maqollarni aniqlash, tasniflash va tahlil qilish uchun foydalanadi; *diniy*: diniy ta’limot va hikmat matnlari tahlil qilinadi; *badiiy*: nasr va she’riyatdagi maqollar o‘zining adabiy ahamiyati hamda yozuvchi haqida, o‘z davri va h.k. haqida ma’lumot berishi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi; *amaliy*: maqolning intellektni tekshirish, psixoterapiya va boshqa sohalarda qo‘llanishi ko‘rib chiqiladi; *madaniy*: maqol ijtimoiy-madaniy kontekstdan kelib chiqqan va singdirilgan xalq adabiyotining ko‘p funksiyali xususiyati sifatida qaraladi; *kognitiv*: kognitiv fanga asoslangan bu ilmiy yondashuv odamlarning maqollardan qanday foydalanishi va tushunishini tushuntiradi¹⁸.

XX asrning oxirgi 30-yilida maqollarni tahlil qilishda yangi strukturaviy-semantik yondashuv yuzaga keldi. Bu matn lingvistikasi va paremiologiya fan sohalari taraqqiyoti bilan bog‘liq. Ilmiy paremiologiyaning asoschilaridan biri G.L. Permyakovdir. Uning fikricha, “tugallanmagan fikr”ni ifodalovchi majoziy so‘z birikmalariga yoki jumllariga matallar, “tugallangan fikr”ni shakllantiradigan majoziy ma’noli gaplarga maqollar deyiladi¹⁹.

O‘zbek tilshunosligida paremalarni to‘plash, o‘rganish, paremiologik birliklar ustida ilmiy tadqiqod ishlari Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” va Gulxaniyning “Zarbulmasal”idan to hozirgi kungacha davom etib kelmoqda.

O‘tgan davrlar mobaynida o‘nlab maqollar to‘plamlari chop etildi: “O‘zbekcha otalar so‘zi” (1924), “Maqollar va hikmatli so‘zlar” (1939), “O‘talar so‘zi – aqlning ko‘zi”(1947), “O‘zbek xalq maqollari”(1978), “O‘zbek xalq maqollari” (2 jildlik, 1987-88) shular jumlasidandir. Xalq maqollarini to‘plash va o‘rganishda H. Zaripov, B. Karimov, O. Safarov, D. Jo‘rayeva, Z. Xusainova, Sh. Shotursun, Sh. Shorahmedov, T. Mirzayev, B. Sarimsoqov²⁰ kabi olimlarning hissasi katta.

Dissertatsiyaning “Gender munosabatlarni ifoda etuvchi maqollarning strukturaviy-semantik xususiyatlari” deb nomlangan ikkinchi bobida ingliz, rus va o‘zbek tillarida gender munosabatlarni ifoda etadigan maqollarning

¹⁸ Honek R. A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom. – USA.: Lawrence Erlbaum, 1997. – 277p.

¹⁹ Пермяков Г.Л. Основы структурной паремииологии. – Москва: Гл. ред. вост. лит., 1988. – 236 с.

²⁰ Zaripov H. Folklor va arxeologiya materiallarini qiyosiy o‘rganishga doir. – T., 1958; Buyuk Karimiy. O‘zbek xalq ertaklarining ba’zi bir xususiyatlari // O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. – Toshkent: Fan, 2010. – B. 37-48; Mirzayev T., Safarov O., O‘rayeva D. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Aloqachi, 2008; Husainova Z. O‘zbek topishmoqlari. – T.: FAN, 1966; O‘zbek xalq maqollari. – T.: O‘zdavnashr, 1968; Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. – T.: O‘SE Bosh redaksiyasi, 1990; Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar xazinasi. – T.: Sharq, 2003; Berdiyev H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1984; Sarimsoqov B. “Adabiy turlar haqida mulohazalar” // “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali. – T., 1993. 5-6-sonlar.

strukturaviy, stilistik, semantik, assimetrik va simmetrik xususiyari o‘zaro chog‘ishtirilgan holda o‘rganildi.

Keyingi yillarda paremiologlar maqollar orqali ifoda etiladigan, jumladan, keng ma‘noda “maqol uslubi” deb nomlanadigan yoki Sh. Arora (1984) ta‘biri bilan aytganda, “maqol” tushunchasini tashkil etadigan ayrim she‘riy va strukturaviy xususiyatlarni aniqlash maqsadida *parema* til birligi ustida ko‘plab ilmiy tadqiqod ishlari olib bormoqda. Mazkur tadqiqodlarda *parema* til birligi, strukturasi maqollarning maqomini aniqlashda asosiy omil vazifasini o‘tay boshladi. Gapda uslubiy xususiyatlar qancha ko‘p bo‘lsa, maqollik darajasi va gapning maqol bo‘lishi ehtimoli shuncha yuqori bo‘ladi.

Shuni ham ta‘kidlash lozimki, keyingi yillarda olimlar maqol uslubi konsepsiyasini amalga oshirish uchun qo‘llaniluvchi bir qator stilistik vositalarni aniqladilar. Ular sirasiga parallelizm, ellipsis, alliteratsiya, qofiya, metafora, personifikatsiya, paradoks, giperbola va boshqa leksik, sintaktik va stilistik vositalar kiradi. Strukturaviy belgilar universal va osongina identifikatsiya qilinadigan maqol belgilaridan biri bo‘lib, an‘anaviy shakllar nuqtayi nazaridan ham, maqollarda uchraydigan sintaktik vosita turlari, xususan, sintaktik parallelizm, parataksis, gipotaksis, parentaksis, supertaksis, gipertaksis va arxitaksis²¹ kabi gap turlari kiradi.

Maqollar oz sonli an‘anaviy strukturaviy shakllarga asoslanadi. Yuqorida keltirilgan strukturaviy shakllar, asosan, XX asr mobaynida amalda bo‘lgan. V. Mider (2012) zamonaviy Angliya-Amerika maqollari bo‘yicha olib borgan eng so‘nggi tadqiqotlarida yangi maqollarni yaratish va targ‘ib qilish jarayonida an‘anaviy strukturaviy shakllar hozirda keng tarqalmaganligini ta‘kidlaydi. Quyida chog‘ishtirilayotgan tillarda mazkur strukturaviy shakllar tahlili 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Mider taqdim etgan strukturalar asosida tanlangan uch tildagi GMIEM

	Ingliz GMIEM	Rus GMIEM	O‘zbek GMIEM
X is Y	<i>Man is a wolf to man</i> <i>Boys will be boys</i>	<i>Дочь – чужое</i> <i>сокровище</i> <i>Мать – опора дома.</i>	<i>Qiz bola – uy ziynati</i> <i>Ona – olam faxridir</i>
X is better than Y / Better X than Y	<i>Better be an old man’s darling, than a young man’s warling</i> <i>An old wise man’s shadow is better than a young buzzard’s sword</i>	<i>Лучше умирать в поле, чем в бабьем подоле</i> <i>Жены богатой лучше не брать, чем ей мужем владать</i>	<i>Qaynona qo‘lidan yog‘lik cho‘zma yegandan,</i> <i>Ona qo‘lidan quloq cho‘zma yegan yaxshi</i>
It’s not X, it’s (but) Y	<i>It is not as the mother says, but as the neighbors say</i>	<i>Не тот богат, у кого всего много, а тот, у кого дети здоровы.</i>	<i>Arslon izidan qaytmas,</i> <i>Yigit - so‘zidan.</i>

²¹ Хошимов Г.М Принципы и методика типологического сопоставления сложных предложений. Монография. – Андижан: Издательства Хаёт, 2016. – 160 с.

When you X, (you) X	<i>When in Rome, do as the Romans do. When a fool goes to the bath, he forgets to wash his face</i>	<i>Когда меня мать рожала, так три года дрожала Когда у Ивашки белая рубашка, тогда у Ивашки и праздник.</i>	<i>Kelinni kelganda ko'r, Sepini yoyganda ko'r.</i>
When you X (you) (Y)	<i>When a fool goes to the bath, he forgets to wash his face Marry your son when you Will, your daughter when you can .</i>	<i>Бабе тепло когда мужа припекло. Красные похороны, когда муж жену хоронит.</i>	<i>Enang qilsa zo'rlikni, Bolang tortar xo'rlikni Itni ovga berganda sina, Yigitni yovga – berganda</i>

Mider tadqiqotida ko'rsatib o'tilgan oltita turdan anglash mumkinki, zamonaviy tuzilmalar soddalashtirilgan, qisqartirilgan formulalarni o'zida aks ettiradi (2-jadval).

2-jadval

Maqollarning 6 turdagi modellari asosida tahlilga tortilgan ingliz, rus va o'zbek tilidagi GMIEM

1. A(n) / noun / verb...		
<i>A Ms. is as good as a male.</i>	<i>Жена ублажает – лихое замышляет</i>	<i>Er – ishlagan yerda aziz.</i>
2. A(n) / adjective / noun / verb ...		
<i>A beautiful bride needs no dowry</i>	<i>Плохой (Глупый) non свенчает, и хорошему (умному) не развенчать</i>	<i>Aqlli qizni yig'latish ham qiyin, kuldirish ham)</i>
3. The / noun / verb ...		
<i>The wife is the key of the house</i>	-----	-----
4. You can't (cannot) / verb ...		
<i>You can't keep a good man down</i>	<i>Дворянином быть не сможет, а мужиком жить не хочется.</i>	<i>Shoshgan er uyga yetolmas. Shoshmagan arava quyonga yetar.</i>
5. Don't (do not) / verb ...		
<i>Don't kick a fellow when he's down</i>	<i>Не жалей хозяйского добришка, ешь, Гришка!</i>	<i>Ota oldida kek urma, Odobingga chek urma</i>
6. Never / verb ...		
<i>Never send a boy to do a man's job.</i>	<i>В ссуду жена никогда не дается, а лошадь, смотря по человеку.</i>	-----

Yuqoridagi V. Mider tomonidan taklif etilgan 6 turdagi modellar tahliliga keladigan bo'lsak, 1- va 2-model chog'ishtirilayotgan uchta tilga, 3-model faqat ingliz tiliga xos, chunki rus va o'zbek tillarida aniq hamda noaniq artikllar mavjud emas. 4- va 5-model ham ingliz, rus va o'zbek tillarda izomorfik xususiyatga ega, 6-modelga xos GMIEM o'zbek tilida topilmadi.

GMIEMning ingliz, rus va o'zbek tillardagi tahliliga o'tamiz:

If you make your wife an ass, she will make you an ox.

Mazkur GMIEM sintetik bog‘langan, shart ergash gapli qo‘shma gap bo‘lib, ushbu maqol strukturasi **C+S1+P1,S2+P2** shaklida bo‘ladi. Bu yerda S1 – birinchi gapning egasi, P1 esa birinchi gapning kesimi hisoblanadi, C – bog‘lovchi. Bu yerda bog‘lovchi vositasi sifatida *If* qo‘llangan. O‘xshatish bo‘lgani tufayli metafora stilistik vosita sifatida qo‘llangan.

What little Jack doesn't learn, big Jack will never learn

Ushbu GMIEM da asindeton sintaktik stilistik vositasi ishtirok etgan. Bu maqol qo‘shma gapdan iborat bo‘lib, ular o‘zaro asindetik, ya’ni bog‘lovchilarsiz bog‘langan. Asindeton stilistik vositasining strukturaviy ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi: **S1+P1+s+S2+P2**.

The father you go in the forest, the more firewood you find.

Yuqoridagi maqol ham aynan asinetonga misol bo‘ladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, ayrim gender komponentli maqollarimizda bir paytning o‘zida ikki va undan ortiq stilistik vositani qo‘llanishini kuzatishimiz mumkin.

You can take the boy out of the country, but you can't take the country out of the boy.

Ushbu maqolda bir paytning o‘zida ham polisindeton, ham xiazm (tardi aks) stilistik vositasi qo‘llanishini kuzatish mumkin. Bunday holatda mazkur maqolning quyidagi strukturaviy ko‘rinishidan foydalanamiz: **S1+P1+O1+c+S2+P2+O2**

Ma’lumki, xiazm (tardi aks) stilistik vositasi ishtirok etgan qo‘shma gaplarda birinchi gap aksariyat hollarda ikkinchi gapga strukturaviy jihatdan qarama-qarshi qo‘yiladi. Ya’ni birinchi gapdagi ega ikkinchi gapda (gapning ikkinchi darajali bo‘lagiga) to‘ldiruvchiga, birinchi gapdagi to‘ldiruvchi (yoki ikkinchi darajali bo‘lak) ikkinchi gapda egaga aylantiriladi. Bunga yuqoridagi maqol misol bo‘la oladi: *Ты, кума, про себя умна; а и мы кумились, с умом не простились.*

Yuqoridagi gapimiz polisinetonga yorqin misol bo‘la oladi. Bunda “a” bog‘lovchi vazifasini bajarmoqda. Demak, ushbu maqolimizning struktural ko‘rinishi quyidagicha shakllantiriladi: **S1+P1+c+S2+P2**

Maqollar shakliga ko‘ra, nasriy hamda she’riy tuzulishga ega bo‘ladi. *Man shall not live by bread alone – Father knows best; Бабе монор доверил – Баба мужуку Богом дана; Er-xotin – qo‘sh qanot – Chiroyli qizning nozi bor* kabi maqollar nasriy tuzulishdagi maqollar hisoblanadi. O‘zbek xalq maqollari ichida she’riy shakldagi maqollar ingliz maqollariga nisbatan ko‘p uchraydi. She’riy shakldagi maqollarda o‘ziga xos vazn, qofiya va ohangdorlik mavjud.

Oltovlon ola bo‘lsa, og‘zidagin oldirar

To‘rtovlon tugal bo‘lsa, tepadagin endirar

She’riy tuzulishdagi maqollarda ritmik-sintaktik parallelizmlar, alliteratsiya, qofiya va boshqa ko‘pgina poetik vositalar ifodalanadigan ibratli fikrni jarangdor, ohangdor, libos bilan bezantirsa, ayrim hollarda oddiy so‘zlarning takrorlari yoki radiflar ham qofiya vazifasini o‘taydi. Masalan:

Gray's Inn for walk

Lincoln's Inn for a wall

The Inner Temple for a garden

And the Middle for a hall

*Была б моя бабуся,
Никого не боюся;
Бабушка – щиток,
Кулак – молоток.*

*So ‘z ko ‘rki – maqol,
Guzar ko ‘rki – baqqol,
Yigit ko ‘rki – soqol*

Xalq maqollariga murojaat etganda, ulardagi tarixiylikni hisobga olish lozim. Chunki bugungi kunda nutqimizda ishlatilayotgan maqollarning ko‘pchiligi o‘tmishda yaratilgan, xalq psixologiyasi, dunyoqarashidagi cheklanganliklar va ziddiyatlar aniq ifodasini topgan. Binobarin, xalq maqollarini to‘plash, ularning turli davrlarga xos qatlamlarini izchil, sinfiylik nazaridan o‘rganish lozim. Masalan, “*Boy boyga boqar, suv soyga oqar*” o‘zbek xalq maqoli qaysi davrida va jamiyatning qanday sinf vakillari tomonidan aytilganini anglash bir qarashda qiyin. Agar maqol mehnatkash xalqning nutqida qo‘llangan bo‘lsa, u shu sinf manfaatlariga xizmat qiladi yoki aksincha.

Yoki ingliz “*Oxford for learning, London for wit, Hull for women, and York for a tit*” (“tit” bu yerda “horse”(ot)),” *From hell, Hull, and Halifax, good Lord deliver us*” (Halifax bu 17-asrda Angliyada jundan qilingan kiyimlar bozori bo‘lgan) maqolini ko‘rib chiqsak. Maqolning tarjimasi – Oksford o‘rganish uchun, London aqlni charxlash uchun, Hull savdo uchun va York otda uchish uchun yaxshi manzillardir. O‘zbekcha muqobil sifatida: “*Har yerni qilma orzu, Har yerda bor tosh-u tarozi*” yoki “*Har yerning o‘z botmoni bor*”.

L.N. Tolstoy “*Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko‘raman*”²² degan edi va bu yuqorida keltirgan barcha fikrlarimizni tasdiqlaydi.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi maqollarning gender xususiyatlarini o‘rganishda “*erkak*” hamda “*ayol*” dunyoqarashida quyidagi olti semantik guruh alohida qayd etildi: *nikoh, muhabbat (sevgi), tashqi ko‘rinish, otalik / onalik, xarakter va keksalik*²³.

An’anaviy jamiyatda nikoh farovonlik va mustaqillikning kafolati, chunki nikoh oilaning paydo bo‘lishi, ijtimoiy mavqeyini oshirishni anglatadi. Erkakning oila qurishi, uyda bekasi-xotini bo‘lishi kerak va bu maqollarda ham o‘z aksini topadi:

A man without a wife is but half a man (*мужик без жены наполовину мужик*)

Добрая жена да жирные щи - другого добра не ищи
Xotinsiz o‘tish – xato, bolasiz o‘tish – jafo.

Izlanishlarimiz jarayonida maqollarda nikoh, oila qurish va ro‘zg‘or qilishning nafaqat ijobiy, balki salbiy ma’noga ega bo‘lishini aniqladik:

Honest men marry soon, wise men not at all.

²² Толстой Л.Н. Полное собрание сочинений в 90 т. – М., 1928-1958. – С. 65.

²³ Yuqoridagi zikr etilgan GMIEMlarning semantic guruhlari biz tomonimizdan qayd etilgan.

Все выбирать, а женатым не бывать.

Bir yangi uylangandan qo‘rq, bir– yangi boyigandan.

Yuqoridagi ta‘riflardan ko‘rinib turibdiki, “*nikoh*” tushunchasining talqini barcha tillarda bir xil.

Chog‘ishtirilayotgan tillardagi gender komponentli maqollarda sevgi va muhabbat quyidagicha talqin qilingan:

The love of a woman, and a bottle of wine, are sweet for a season, but last for a time

Женская любовь, что роса утренняя: пахнул ветерок - и нет ее.

Братская любовь пуце (лучше) каменных стен.

Mard yigitga sevgi sinov.

GMIEMda nafaqat ayol va erkak orasidagi, balki farzand, tangri, jigarlari, el-yurtga bo‘lgan muhabbat tarannum etiladi

Keyingi semantik guruh – “*tashqi ko‘rinish*” chog‘ishtirilayotgan tillarda ayolning tashqi ko‘rinishi va ichki fazilatlari bir-biriga bog‘langan:

A fair woman, without virtue, is like palled wine

Волос долог, да ум короток

Ayolning husni pardozda emas, aqlida

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, ayollarning go‘zalligi katta ahamiyatga ega emas, uning ijobiy fazilatlari muhim o‘rin tutadi.

Gender komponentli maqollarda tashqi ko‘rinishning o‘xshashligi quyidagicha:

1. Paremiyalar ayol go‘zalligi me‘yorlarini o‘zida aks ettiradi.

2. Tashqi joziba asosiy narsa emasligi, uning o‘tib ketishi, balki yaxshi fazilatlar saqlanib qolishi ta‘kidlanadi.

3. Xunuk ko‘rinish ko‘pincha masxara qilinadi.

4. Ayrim maqol va matallarda ayolning tashqi ko‘rinishiga oid mushohadalar, masalan, go‘zallikning mo‘rtligi, qarilik va xusning tark etishi muqarrarligi hamda hokazo.

Otalik / Onalik” semantik guruhi. “*Otalik* erkak genderiga xos universal jihatdir. An’anaviy jamiyatda otalik, bolalarning mavjudligi har doim “*erkak kuchi*”ning majburiy ko‘rsatkichi va erkak kimligining tarkibiy qismi hisoblangan”²⁴.

Chog‘ishtirilayotgan barcha tillarda ota bolaning tarbiyasiga e‘tibor berishi kerakligi ta‘kidlanadi:

It is a wise father that knows his own child.

He тот отец, что вспоил, вскормил, а тот, что уму-разуму научил

O‘g‘li yomon bo‘lgani uchun, otasi ham tanqid qilinadi.

Keltirilgan misollardan ko‘rish mumkinki, oilada ota bolalarning tarbiyasi bilan shug‘ullanmasa-da, ular qiz farzandlardan ko‘ra o‘g‘il farzandlarga vaqtini ko‘proq sarflar ekan.

Ona muhabbati, iliq mehri har qanday xavf-xatardan, hatto o‘limdan ustun. Ona farzandi uchun hamma narsaga hamisha tayyor. Farzand xatar oldida bo‘lsa,

²⁴ Кон И.С. Мальчик – отец мужчины. – М.: Время, 2009. – 704 с. ISBN 978-5-9691-0469-3.

hech ikkilanmay hayotning barcha zavqu shafqidan, sururidan voz kechadi. O‘zini qurbon qilib bo‘lsada, farzandini asraydi. Ona ana shunday ruhiy va ma’naviy qudrati bilan ba’zi holatlarda erkaklardan ustun turadigan noyob xilqat. Onaga berilgan ta’riflar GMIEMarda ham o‘z aksini topgan:

Mother is the name of God in the lips and hearts of children.

Тепло, да не как лето; добра, да не как мать.

Bolaning qo‘li shilinsa, onaning ko‘ngli shilinadi.

“Характер” alohida o‘ziga xos semantik guruhni ifoda etadi. “Характер” semantik guruhining ingliz, rus va o‘zbek tillarida ta’riflarini o‘rganish jarayonida, chog‘ishtirilayotgan tillar madaniyatlarida mazkur tushuncha umumiy xususiyatga ega degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Gender komponentli maqollardagi xalq donoligi haqida so‘z borganda, ularning aksariyatida ayolning ayyorligi haqida so‘z boradi.

Maids say nay, and take it (Ayollar avval yo‘q deyishadi, keyin esa aksincha o‘z bilganidan qolmaydi)

Баба и черта перехитрит, на женские прихоти (причуды) не напасешься.

Bir xotinning xiylasi, qirq eshakka yuk bo‘lar.

Yuqorida sanab o‘tilgan salbiy xususiyatlarga qo‘shimcha ravishda, barcha chog‘ishtirilayotgan tillarning maqollarida ayol xarakterining boshqa xususiyatlarini ham namoyon bo‘ladi:

A woman conceals what she knows not

Девка красива, да прясть ленива

Yalqov xotinga bola – bahona.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, chog‘ishtirilayotgan tillar GMIEMida “Характер”ni ifoda etuvchi maqollarning aksariyat qismini ayollarga xos bo‘lgan maqollar tashkil etdi, erkak xulq-atvori bilan bog‘liq gender komponentli maqollar juda kam sonni tashkil etdi. Masalan, ingliz tilida:

A good man can no more harm than a sheep

A man lion in his own cause

One father is better than a hundred schoolmasters kabi maqollarda erkak kishi namunali ota, o‘z ishining ustasi, yaxshi turmush o‘rtoq sifatleri bilan ta’riflansa, rus maqollarida:

Без мужа жена – всегда сирота.

Не муж: в мужьях, кем жена владеет; не работа в работах под женками воз возити.

Муж: в поле пахать, а жена руками махать.

Муж – это глава семьи, кормилец, защитник семьи и жены, ya’ni rus erkaklari mehnatkash, oila boquvchisi, ersiz xotin bir butunlik sanalmasligi, lekin er aybi tez unitilishi, ayolniki abadiy qolishi kabi ma’nolarni o‘zida mujassam etadi.

Erkaklaga xos xususiyatlarni ifoda etuvchi gender komponentli o‘zbek maqollarida erkakning mard, g‘ayratli, jonkuyar ota, mehnatkash, nasl davomchisi kabi unikal xislatlarni kuzatishimiz mumkin:

Boboning tol ekkani – O‘ziga nom ekkani.

Er yigit el aybini ochmas.

Qo'zi qo'chqordan nishon, o'g'il – otadan.

Borliqning falsafiy jihatlarini chuqur o'rganish insoniyatni simmetriya va assimetriya haqidagi umumiy ilmiy tushunchalar bilan ishlash zarurligiga olib keldi. Fanda bu atamalarning konseptual mazmuni doimiy ravishda ishlab chiqilib, takomillashtirildi. Assimetriya va simmetriya o'zaro bir butun obyektiv borliqning ikkita nuqtasi hisoblanib, doimo birlikda va bir-biriga qarama-qarshi namoyon bo'ladi. Yuqoridagi ta'riflarga suyangan holda biz simmetriya va assimetriya terminlarini til hodisalari uchun, tilshunoslik uchun ham taalluqli, deb ayta olamiz.

Gender juftligi erkak va ayol shaxslarning juftlashgan ismlarini oz ichiga oladi, mos ravishda nominatsiyalarni tashkil etishning belgilangan turi gender simmetriyasining mavjudligini anglatadi. Gender juftligiga kiritilgan nominatsiyalar bir xil integral qiymatga ega va erkak / ayolning differensial belgisiga ega.

Masalan, *parent, родитель, ota-ona* gender juftliklarida "ota-ona" integral qiymati bir xil, jins belgisi esa mos ravishda farqlanadi. *Father, ota, отец* – erkak; *mother, мать, ona* – ayol jinsiga mansub.

Gender juftliklar o'zining matn mujassamlanishini ikkita ko'rinishda ifoda etadi.

Gender juftlikning birinchi ko'rinishi aniq xususiyatga ega: juftlikning tarkibiy qismlari bir xil maqolda ifoda etiladi:

*Первую дочь беру – по **отцу**, по **матери**, а вторую – по сестре!*

*A good **wife** makes a good **husband**.*

*Yomon farzand **ota-onani** yerga qaratar,*

*Yaxshi farzand **ota-onani** elga oralatar.*

Yuqorida keltirilgan maqollarda shuni ko'rish mumkinki, chog'ishtirailayotgan tillarda ifoda etilgan har bir maqolda gender komponentli maqollarning tarkibiy qismlari barchasida o'xshashdir, masalan, rus tilida *отец – мать, баба – дед*, ingliz tilida esa *wife – husband, mother – father, son – daughter* bilan, o'zbek tilida esa *ota – ona, erkak – ayol* o'zaro simmetrik xoslikni ifoda etmoqda.

Maqollarda simmetrik va assimetrik hodisasi nafaqat genderni anglatuvchi leksik birliklarni qo'llanilishida, balki maqol strukturasi ham yaqqol namoyon bo'ladi. Maqollarda *simmetriya hodisa*: maqollarda grammatik va semantik tenglik va uyg'unlikni anglatadi. Maqollarda simmetriyaga *parallelizm, xiazm, antiteza, takror, antimetabola, o'xshatish* kabi stilistik vositalar qo'llash orqali erishish mumkin. Masalan,

You can take the boy out of the country, but you can't take the country out of the boy.

Муж голова, жена душа.

Epli qizdan qolma,

Sepli qizni olma

Assimetrik maqollar - ifodasida mutanosib ko'zga tashlanmaydi yoki parallel tuzilishga ega bo'lmaydi. Ular taqqoslaganda nomutanosiblikni o'z ichiga olishi mumkin yoki ularning shaklida aniq struktura ko'zga tashlanmaydi.

A woman's work is never done

Для поговорки мужик в Москву пеши пошел.

Tul xotinning boshida turna tezakar.

Gender komponentli maqollarning *ikkinchi ko‘rinishi* yashirin xarakterga ega bo‘lib, maqolning tarkibiy qismlari chog‘ishtirilayotgan tillarda turli xil maqollar orqali ifoda etiladi. Shu bilan birga, bunday ko‘rinishda ifoda etilgan maqollar assimetrik xususiyatga ham ega bo‘ladi, ya’ni gender komponentlarida nomutanosibliklar seziladi, bu bilan maqollarda *ota-ona, o‘g‘il-qiz, aka-uka opa-singil* va shu kabi simmetrik tenglik kuzatilmaydi, balki *ota-o‘g‘il, ona-qiz* kabi nomutanosiblik kuzatiladi. Bunday assimetrik xususiyatlarni chog‘ishtirilayotgan tillarda qiyoslash, yoki chog‘ishtirish jarayonida aniqlash mumkin:

Каков батюшка, таковы у него и детки.

Какова matka, таковы и детки.

Like mother, like daughter

Onasiga qarab qizini ol.

Yuqoridagi maqollar matnida gender assimetriyaning asosiy ko‘rinishlaridan biri gender lakunarlikdir. Gender lakunarlik (lacuna/lacunarity) atamasi hozirda tilshunoslikda ham tillararo, ham til interferensiyasi lakunarligi nuqtayi nazaridan muayyan bir ta’rifga ega emas.

Maqol matnida gender juftliklari bo‘lmagan belgilangan nominatsiyalarning mavjudligi ularni gender lakunar birliklari sifatida tavsiflashga imkon beradi.

Yuqorida berilgan ta’riflarga muvofiq, “lakuna bu – lakunar birlikning nol korrelyatsiyasi” deb tushunilishi lozim²⁵. Masalan,

Nobody is perfect

Всяк человек своего счастья кузнец

Odam bordir, odamlarning naqshidir,

Odam bordir, hayvon undan yaxshidir.

Tadqiqotchilar tilda shaxsni tavsiflashning metagender (universal) va jins (erkak va ayol) darajalaridan iborat ikki bosqichli modelni aniqladi. Agar muayyan maqollarda refent jinsi aniq korsatilmagan bo‘lsa uni o‘rnida, asosan, metagender so‘zlar qo‘llanadi. Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, metagender vazifasini ingliz maqollarida *man* so‘zi, rus tilidagi maqollarda *человек* so‘zi, o‘zbek tilida esa *odam, inson* leksemi, otlashgan sifatlar, gumon olmoshlari, ijtimoiy daraja va ayrim kasblarga oid so‘zlar ko‘proq bajaradi. Masalan,

A covetous man is like a dog in a wheel that roasts meat for others.

Early to bed and early to rise, makes a man healthy, wealthy and wise.

Добрые умерают, да дела их живут.

Всяк человек своего счастья кузнец.

Inson – odobi bilan,

Osmon oftobi bilan.

Havoning taftiga boq,

Odamning aftiga boq.

Maqol matnida gender juftliklari bo‘lmagan, shu bilan genderni aniq ifoda etuvchi leksik birlik qatnashmagan nominatsiyalarning mavjudligi ularni gender lakunar birliklari sifatida tavsiflashga imkon beradi.

²⁵ Байрамова Л.К. Лакунарные единицы и лакуны. Лакуны в языке и речи: сб. науч. тр. – Благовещенск: БГПУ, 2006. – Вып. 3. – С. 3-7.

Dissertatsiyaning “**Gender munosabatlarni ifoda etuvchi maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari va tarjima muammolari**” deb nomlangan uchinchi bobi ingliz, rus va o‘zbek tillarida antroponimlar orqali ifoda etilgan gender munosabatli maqollarning qiyosiy, gender munosabatlarni ifoda etuvchi maqollarning lingvokulturologik va gender komponentli maqollarning tarjima xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlangan.

Ko‘pgina ismlarning ijtimoiy bahosi tilda chuqur ildiz otgan. Ko‘pincha, bu baholashni bilish maqolni tushunishga yordam beradi. Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi antroponimik komponentli maqollar misolida fikrlarimizni asoslashga harakat qilamiz.

Erkak ismlar qatnashgan maqollar bir qancha ma’nalarga ega. Shu jihatdan ularni yana quyidagicha ichki tasniflash mumkin. Xususan, ingliz tilining zaxirasini Injilda, mifologik belgilarga ega, yurt qahramonlarining nomlari yozilgan maqollar taskil etadi: *We are all Adam’s children* (Biz hammamiz Odam Atoning bolalarimiz), *Homer sometimes nods* (Gomer ba’zan bosh iring‘aydi). Hech kim, xatto yunon epik yozuvchisi Gomerdek buyuk shoir ham har doim ham mukammal shaxs yoki eng xushyor bo‘la olmaydi. Bu yerda **nod** “uyquasi keladi, uxlab qoladi degan ma’noni anglatadi; demak, “bir lahzalik e’tiborsizlik tufayli xato qilish mumkin” (idiomatik)”. Xatto buyuk odam ham xato qiladi” degan ma’noni ifodalaydi.

Hukmdorlar, siyosatchilar va tarixiy shaxslar orasida katta semantik maydonni real nomlari bilan ifodalangan maqollar ham egallaydi: *Arthur could not tame woman’s tongue* (Artur ayollarning tilini qisqartira olmadi).

Jek, Jill (Jack, Jill) atoqli otlari bo‘lgan paremiyalar o‘ziga xos tarzda qabul qilinadi: ingliz paremiyalarida Jek nomi, bir tomondan, ingliz va erkakning ramzi bo‘lsa, boshqa tomondan, bu erkak xizmatkorning umumshtirilgan nomi. Bundan tashqari, “Jek va Jill” iborasi ilgari Angliyada o‘g‘il hamda qizni umumiy juftlik sifatida ko‘rsatish uchun qo‘llanilgan: *Every Jek (shall/must) with its Jill*.

Rus tilida ham shaxs ismlari bilan bog‘liq maqollar keng tarqalgan. Antroponimik komponentli maqollar ma’lum insoniy fazilatlarga baho berilganda qo‘llanadi: *Иванушка дурачок, с виду простачок, но себе на уме; У Фили пили, Филю и побили; Мели, Емеля, твоя неделя* (ko‘p, ma’nosiz gapiruvchi, yolg‘onchi haqida; ertaklarda u mantiqsiz gapiruvchi sifatida tanilgan). Rus tilida *Ivanushka, Filya, Emelya* ismlari qatnashgan maqollar ko‘proq sodda, telbanamo, tentaksifat insonlarni ifodalash uchun qo‘llanadi.

Bir qator maqollarda Injil qahramonlari, xususan, aziz-avliyolarning nomlari saqlanib qolgan. Nikolay ismi Nikola shakllarida tez-tez uchraydi: *Никола в путь, Христос по дорожке; Проси Николу, а он Спасу скажет; Святой Феодул теплячком подул; Борис и Глеб – поспел хлеб, Иван постный пришел, лето красное увел*.

O‘zbek xalq ijodida, jumladan, maqollarida antroponimik nomlar juda ham keng qo‘llanilgan, biroq shuni alohida ta’kidlash kerakki, erkak nomlari qatnashgan GMIEM lar soni ayol nomlari qatnashgan GMIEM sonidan ancha ko‘pchilikni tashkil etadi.

Shu o‘rinda erkak nomlari qatnashgan maqollarni ikki giruhga bo‘lib tahlilga tortdik:

O‘zbek erkaklarining ijobiy xususiyatlarini aks ettiradigan gender komponentli maqollar.

“*Ishqda Tohir bo‘l, Ishda mohir bo‘l*” maqolida Tohir antroponimi ishlatilgan. Ma‘lumki, bu obraz xalq og‘zaki ijodida *ishqda vafodor yigit* timsolini ifodalab keladi. Aynan shu ma‘no maqolga ham ko‘chib, *chin muhabbat, sadoqat* kabi oshiq'larga xos fazilatlarni ifodalashga xizmat qilgan.

O‘zbek erkaklarining salbiy xususiyatlarini aks ettiradigan gender komponentli maqollar.

“*Bo‘ji keldi, Bo‘ji keldi, Chingiz bilan Jo‘ji keldi*” maqolida *Bo‘ji, Chingiz, Jo‘ji* ismlari qatnashgan. Ma‘lumki, Chingizxon – mo‘g‘ul sarkardasi, *Bo‘ji* va *Jo‘ji* esa uning o‘g‘illari. Xalq bu bosqinchilaridan hamisha qo‘rqib yashagan. Shu ma‘noda mazkur antroponimlar qo‘rquv, vahshiylikni anglatib keladi.

Qolaversa, erkaklar ismlari qatnashgan maqollar quyidagi xususiyatlari bilan alohidalik kasb etgan:

1. Bu ismlar tarixiy (*Robin, Agamemnon Xorun, Jamshid, Chingiz, Bo‘ji, Jo‘ji, Mahtud, Иван Иванович, Романо Филипп*) asosga ega.

2. Mazkur nomlar hayotiy (*Tom, Jack, Jill, Иван, Фома, Ерёма, Макар, Маланья, Аюоз, Iskandar, Tolib, Luqmon*) mazmunni ifodalagan.

3. Xalq dostonlari qahramonlari (*King Arthur, Guinevere, Lancelot, Merlin, Илья Муромец, Алёша Попович, Tohir, Alpomish*) nomlarini qo‘llash orqali mardlik, jasorat ma‘nolari ifoda etilgan.

4. Maqollarda she‘riy qofiyani (*Mirashir, Berdali, Turdali, Eshmat, Toshmat, Андрей – ротозей, Вавило – рыло, Иван – болван, Мартын – алтын, Роман – карман, Савва – слава, Hasan, Fozil*) ta‘minlash maqsadida ishlatilgan.

5. Diniy marosim va an‘analardan bog‘liq ismlar (*Saint Paul, Saint Thomas, Adam, Eva, Sulaymon, Muhammad*) qo‘llanilgan.

Ayollar ismi ishtirok etgan maqollar ozchilikni tashkil etadi. Bu ismlar ko‘proq hayotiy asosga egaligi bilan ajralib turadi.

Ingliz, rus va o‘zbek maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda til hamda madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini tasvirlash, ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi maqollarning o‘xshash hamda farqli tomonlarini ko‘rib chiqish va ularda mentalitet hamda milliy xarakterning ifodalanishi kabi masalalar tahlili o‘z aksini topgan.




Mashhur tilshunos Dal aytganidek, maqollar – bu xalq tilidan, hayot tajribasidan olingan hikmatlar majmui, sog‘lom aql sarasi, xalqning hayotda orttirgan haqiqatidir. Turli tizimli tillar maqollariga to‘xtalar ekanmiz, ular o‘sha til egasi bo‘lmish xalqning tarixiy, ma‘naviy va moddiy madaniyati ko‘zgusi ekaniga guvoh bo‘lamiz.

Ingliz, rus va o‘zbek madaniyatini aks ettirgan GMIEMlar ko‘rsatkichlari

Ingliz madaniyatida eng ko‘p aks etgan GMIEMlar			
	Maqollarning umumiy soni	1313	100%
1	Ingliz madaniyatiga xos maxsus maskanlar ifodalangan GMIEMlar	50	3.8%
2	Nikohning muqaddasligini ifoda etuvchi gender munosabatli maqollar	40	3.4 %
3	Yaxshi xotinni uluglovchi GMIEMlar	55	4.2%
Rus madaniyatida eng ko‘p aks etgan GMIEMlar			
	Maqollarning umumiy soni	2156	100%
1	Rus madaniyatida kollektivizm, vaqtni chog‘ o‘tkazishni ifodalovchi GMIEMlar	156	8%
2	Erkak kishining qadr qimmatini ifoda etuvchi gender munosabatli maqollar	400	18%
3	Qarindosh urug‘chilikni ifoda etuvchi gender munosabatli maqollar	476	22%
O‘zbek madaniyatida eng ko‘p aks etgan GMIEMlar			
	Maqollarning umumiy soni	857	100%
1	O‘zbek madaniyatida milliy obraz va tushunchalarni ifodalovchi GMIEMlar	20	2.3%
2	O‘zbek oilasining boshi – erkak kishi ekanligini ifodalovchi gender munosabatli maqollar	75	8.8%
3	Oilaviy qadriyatlar va qo‘shnichilikni ifodalovchi GMIEMlar	147	17%

Olib borilgan ingliz tilidagi statistik tahlil o‘zida 15000 mingdan ortiq maqollarni qamrab olgan “English proverbs and proverbial phrases” (2018) maqollar to‘plamidan saralab olingan 1313 ta GMIEMlar ustida olib borilgan bo‘lsa, rus tilidagi tahlil V.Dal tomonidan to‘plangan 30000 dan ortiq maqoldan iborat «Пословицы русского народа» (1989) to‘plamidan GMIEMlarning 2156 tasi tahlilga tortilgan, o‘zbek tilidagi statistik tahlil esa 2005 yilda T. Mirzayev va boshqalar tomonidan to‘plangan 13000 mingga yaqin maqollar jamlanmasidan GMIEMlarning 857 tasi tahlilga tortildi.

Ayol va erkaklarning ijtimoiy maqomlarini tahlil qilish davomida “qarindoshlik munosabatlari” semantik maydoni muhim o‘rin tutishi kuzatildi. O‘zbek va rus tillarida ushbu maydon juda keng yoritilgan bo‘lsada, ingliz tilida faqat eng yaqin qarindoshlarga nisbatan qo‘llanadi. Uch tilda yozilgan maqollar to‘plamida qatnashgan qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi leksemalar statistikasini 1-rasmimizda taqdim etdik.



1-rasm. Qarindoshlikni ifodalovchi leksemalarning ingliz, rus va o'zbek xalq maqollari kitoblaridagi GMIEMlarda ishlatilish soni

Zoonimlarning o'ziga xosligi hayvonlarning tasvirlari orqali insonlarning shaxsiy xususiyatlarning standart tashuvchisi bo'lib xizmat qiladi.

Zoonimlar har qanday tilning eng qadimgi qatlamlaridan birini ifodalaydi. Dunyo mifologiyasida qadimdan muqaddas hayvonlarga e'tiqod keng tarqalgan; Xudolar termomorf (hayvon) ko'rinishlariga ega ekaniga ishonishgan²⁶. Shu bilan birga, insoniy fazilatlar va tabiat hodisalari muayyan hayvonlarga tegishli deb hisoblaganlar:

What do you expect from a pig but a grunt – На то свинье дано рыло, чтобы оно рыло – Eshak hangramasa “hangi” demaslar.

Ushbu maqollarda yomon insonlarning xulq-atvori nazarda tutilgan.

Zoomorfizmlar orqali insonlarning fazilatlar va xislatlari bayon etiladi. Bu esa maqolning ta'sirchanligini oshirish, adabiyotning boyishida alohida o'ringa ega.

Maqollar va ularning tarjimai borasida yevropa tilshunosligida olib borilgan ilmiy tadqiqod ishlariga yuzlansak, jumladan, B. Dizraeli maqollarning ahamiyatini quyidagicha ta'kidlagan: maqollar inson hayotining keng doirasini qamrab oladi, ular hayotning barcha jabhalarini o'zida mujassam etadi, ular ko'pincha so'zlovchining nafis murojaati bo'lib, ular o'zlarining o'tkir satirasi, hazilining dabdabasi va o'ynoqiligini o'z ichiga oladi. Hatto tasvirlarining nafisligi va his-tuyg'ularining nozikligini chuqur anglab yetadi hamda biz uchun inson qalbini, u egallashi mumkin bo'lgan har xil holatda ochib berish imkoniyatiga ega; muloqotda maqollardan tez-tez foydalanish maqsadga muvofiq, chunki ular nutqning bezaklari bo'lmasa-da, biroq tafakkur xazinasi bo'lishga zarracha shubha yoq²⁷. Bularga esa milliy o'ziga xoslik, qofiya, ritm, ohang, alliteratsiya kabi formal xususiyatlar kiradi. Tarjima jarayonida bunday dominantlarni e'tibordan qochirish maqollar taarjimasiga to'liq erishish imkonini beradi.

Rus tilshunosi, N. Komissarov tarjimada asl nusxadagi majoziy frazeologik birliklarni tarjima tiliga mos kelishining uch turini ajratadi: **frazeologik ekvivalentlar, frazeologik analoglar, kalkalash** usullarini tavsiya etadi.

Predikativ frazeologik birliklar yoki paremiyalarni tarjima qilish metodologiyasi V.S. Vinogradovning “Tarjimashunoslikka kirish”²⁸ asarida keltirilgan. Maqol va matallarga kelsak, muallif tarjimaning boshqa usullarini taklif qiladi: *so'zma-so'z tarjima, tavsifiy, o'rnini bosuvchi tarjima va qisman tarjima kombinasiyasidir.*

So'zma-so'z tarjima maqollarni tarjima qilishning asosiy usuli. Ayrim ingliz, rus va o'zbek maqollari bir xil shakl hamda ma'noga ega ekaniga kuzatishlarimiz asnosida amin bo'ldik. Bunday tarjima usullariga asoslangan maqollarni tarjima qilishda so'zma-so'z tarjima usuliga tayanib ish ko'rish lozim. Bunday yondashuv asl maqolning shakli va ma'nosini saqlab qolish bilan birga, o'quvchilarga osongina tushunish imkonini beradi.

Repeating is the mother of learning.

Повторение – мать учёнья.

Takrorlash bilimning onasi.

²⁶ <https://w.wiki/AjAk>

²⁷ <https://citaty.su/aforizmy-i-citaty-bendzhamina-dizraeli>

²⁸ Виноградов В. С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). — М.: Издательство института общего среднего образования РАО, 2001, — 224 с.

Stilistik vazifasi va mazmuniga ko‘ra, o‘xshash bo‘lgan, lekin leksik tarkibiga ko‘ra farqlanadigan analogik variantlar har doim ham bir-birining o‘rnini bosa olmaydi. Tarjimada o‘zaro almashtirishga, tarkibida milliy realiyalari bo‘lgan frazeologizmlar mavjudligi xalaqit beradi. Milliy o‘ziga xos bo‘lgan ba’zi maqollarning analoglari (ekvivalentlari) bo‘lmaydi. Bular boshqa tilga tarjima jarayonida yaratilgan turli usullar yordamida o‘g‘iriladi. Bu usullar o‘zlarining ijobiy xususiyatlari bilan birga, salbiy tomonlarga ham ega. Shuning uchun ham tarjimaning yutug‘i ko‘pincha, ulardan o‘rinli va mohirona foydalanishga bog‘liqdir²⁹. Bunday holatda biz **tavsifiy tarjima** usulidan foydalanishimiz maqsadga muvofiq. Masalan, *A good Jack makes a good Jill*. Agar bu maqolni so‘zma so‘z tarjima qilsak *Yaxshi Jek, yaxshi Jillni hosil qiladi*, ya’ni er yaxshi bo‘lsa xotin ham yaxshi bo‘ladi degan ma’no yotadi.

O‘rnini bosuvchi tarjima, ya’ni ingliz maqolini tarjima qilish uchun rus va o‘zbek maqolini bir xil ma’noda ishlatamiz. Barchamizga ayonki, insoniyat madaniyati juda ko‘p farqlarga ega, ammo umumiy jihatlar ham ko‘p. Ko‘pgina ingliz, rus va o‘zbek maqollari ma’nosi almashtirish usuli yordamida tarjima qilish orqali amalga oshirish mumkin:

Teach your grandmother to suck eggs.

He учи рыбу плавать.

Otangga aql o‘rgatma.

Qisman ekvivalent, bunda o‘giralayotgan til maqolga ma’nosi, vazifasi va uslubiy xususiyatlariga ko‘ra mos keladi, lekin majoziy mazmuni bilan farqlanadi:

Breakfast like a king, lunch like a queen and dine like a pauper.

Завтрак съешь сам, обед подели с другом, ужин отдай врагу

Nonushtani o‘zing baham ko‘r, tushlikni do‘sting bilan baham ko‘r, Kechki ovqatni dushmaningga ber.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tarjima turlariga GMIEM tahlili mos kelsada, biroq maqollarni tarjima qilishda *ijodiy adaptatsiya* (Creative Adaptation) yoki moshlashtirish deb ham yuritiladi hamda *madaniy ekvivalent* (Cultural Equivalent) kabi tarjima turlari ancha samaraliroq deb topdik.

Maqollarni tarjima qilishda *ijodiy adaptatsiya* turidan foydalanish juda muhim, chunki bu usul asli matndagi ma’noni yangi madaniy va til kontekstiga mos keladigan tarzda yetkazishga yordam beradi.

The person always christens his own child first

Har kim qilar o‘ziga

Yelik surtar ko‘ziga

Своя рубаишка ближе к телу [138, b.44]

Ushbu maqol aynan bir mazmun-mohiyatni turli tillarda ifodalaganligi bilan ijodiy moslashuv (adaptation) tarjimaga yaxshi namuna bo‘ladi. Har bir til uchun mos bo‘lgan iborada, o‘sha til vakillariga yaqin bo‘lgan ifodalar tanlangan va so‘zlashuvda o‘rnini topgan.

Har bir tilda o‘zining milliy, madaniy xususiyatlariga ega bo‘lgan maqollar mavjud. Maqollarning tarjimasi milliy, madaniy xususiyatiga chuqur e’tibor

²⁹ Jumaniyozov Zohid Otoboyevich. “Ravshan” dostoni nemischa tarjimasida milliylikni qayta yaratish. Filol.fanlari nom. Diss. – Urganch, 2008. – 96 b.

bergan holda tarjima qilinishi lozim va jarayonda tarjimaning *madaniy ekvivalent (Cultural Equivalent)* turidan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

All are not saint that go to the church

Ha slovaх с богом, а в сердце с чертом

Eshshak Makkaga borgan bilan hoji bo'lmas [138, b.7]

Bu maqollarning barchasida madaniy xususiyatlarni aks ettirivchi diniy elementlar mavjud biroq turli tillarda, turli madaniy xususiyatlarni aks ettiruvchi elementlar mavjud bo'lgan maqollardagi umumiy mazmun: ikkiyuzlamachilik yoki tashqi ko'rinishning yuzakiligini ta'kidlaydi. Ularning har birida odamlarni faqat tashqi xatti-harakatlari yoki bayonotlariga ko'ra hukm qilishdan ehtiyot bo'lishga, tashqi ko'rinish aldamchi bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan holda, tashqi belgilar ularning haqiqiy xarakterini yoki niyatlarini aks ettirmasligini va ehtiyot bo'lishlikka chaqiradi.

Paremiyalarni tarjima qilishda tarjimonning asosiy vazifasi maqol yoki matalning semantik va funksional-stilistik, shuningdek, hissiy-ekspressiv mazmunini yetkazishdir. Bundan tashqari, paremiyalar maxsus barqaror birliklar sifatida qo'llanadi, ular ma'lum ma'lumotlarni uzatishdan tashqari, qabul qiluvchining (o'quvchining) tasavvuriga va hissiyotlariga katta ta'sir ko'rsatishi ham mumkin.

XULOSA

1. Gender tishunosligi nafaqat tilshunoslik nuqtai nazardan, balki fanlararo paradigmadagi rivojlanadi. Gender tilshunosligi til me'yorlarini o'zgartirish nuqtai nazaridan erishgan ijobiy natijalari muayyan tilda gender munosabatini yanada yuksakroq pog'onaga ko'tarishda o'z samarasini beradi.

2. Ingliz, rus va o'zbek tillarida paremiyalarni tadqiq etishda gender munosabatlariga lingvokulturologik yondashuv paremiyalarning lisoniy va ijtimoiy jihatdan o'rganish imkonini beradi. Chog'ishtirilayotgan tillarda maqollarning gender munosabatini ifodalash, ularni struktur, semantik, stilistik tahlil etish ularning mohiyatini yanada oson tushunish imkoniyatini yaratadi.

3. Chog'ishtirilayotgan tillarning barchasida rod kategoriyasi mavjud bo'lmasda (rus va o'zbek), ammo gender munosabatini ifoda etuvchi maqollarning izomorfik xususiyatlari uchchala tilda ham namoyon bo'lishi kuzatildi.

4. Ingliz, rus va o'zbek tillarida gender munosabatlarini ifoda etuvchi maqollar o'ziga xos struktural va semantik xususiyatlarga ega. Tillar turli til qoliplari, jumladan SVO, SOV modellari orqali ifoda etilishi kuzatilsada, ularning semantik jihatdan bir-biriga o'xshash xususiyatga ega ekanligi kuzatildi.

5. Ingliz, rus va o'zbek tillarida gender munosabati bilan bog'liq ayol va erkak leksemalariga xos leksik-semantik maydon borasida olib borilgan tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, ayol bir tomondan zayifa, mustaqil qaror qila olmaydigan shaxs, erksiz va albatta erkak jinsidan hamisha e'tibor kutuvchi shaxs sifatida ta'riflansada, ikkinchi tomondan oila malikasi ya'nikim, xonadon sarishtasi, farzandlar tarbiyasiga ma'sul, uddabiron, mehnatkash, ba'zi vaziyatlarda erga maslakdosh kabi xarakter egasi sifatida asosan o'zbek va rus GMIEMda gavdalanadi. Tadqiqot davomida ingliz maqollarida ayolning jamiyatning kuchli vakilasi millat yetakchisi kabi sifatlarni tarannum etuvchi maqollar ham ko'pchilikni tashkil etishiga guvoh bo'ldik.

6. Azal-azaldan barcha xalqlarda erkak kishi millat qahramoni, oila boshlig'i va ta'minotchisi, jasur, mehnatkash, ayolga nisbatan ancha aqilli, bilimdon shaxs sifatida gavdalanib kelgan, va bu o'z navbatida xalq maqollarida ham o'z aksini topgan. Har bir xalqda erkak kishiga taalluqli, bir biriga o'xshamagan xususiyatlar maqollar orqali bayon etilishi ko'plab uchraydi. Chunonchi, dunyo millatlari orasida ingliz xalqi erkaklari erkak kishi namunali ota, o'z ishining ustasi, yaxshi turmush o'rtoq sifatлари bilan ta'riflansa, rus xalqi erkaklari oila himoyachisi va boquvchisi, do'stlar davrasini sevuvchi shaxslar sifatida, ko'pgina o'zbek xalq maqollarida esa o'zbek erkaklari mehnatkash, oilaparvar shaxslar sifatida gavdalanadi.

7. Chog'ishtirilayotgan tillarda onaning qiyofasi aniq ijobiy rangga ega ma'naviy, axloqiy va hissiy regulyator sifatini kasb etishi kuzatilsa-da, lekin oppozision holatda o'gay ona, odatda, barcha tillarda begona, qattiqqo'l, shafqatsiz deya salbiy baholanadi. Gender munosabatida ayol tushunchasi oppozisiya munosabatida ijobiy va salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'ladi.

8. Gender komponentli ingliz, rus va o'zbek tillaridagi maqollarning semantik xususiyatlari genderni madaniy metafora sifatida aks etishi va gender streotiplari ta'sirida erkak hamda ayol qarama-qarshiligi maqollarda semantik, stilistik ma'no namoyon etishi kuzatildi.

9. Ingliz, rus va o'zbek tillarida GMIEMlar assimetrik va simmetrik xususiyatlarga egadirlar, ya'ni GMIEMlarning verballashuvida ularning stilistik va pragmatik xususiyatlarini ifoda etishda assimetriya va simmetriya fenomenlari muhim ro'l oynaydi. Chog'ishtirilayotgan tillarda assimetriya va simmetriya hodisalari universal xususiyatlarga ega.

10. Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi gender munosabatli maqollarning madaniy va milliy stereotiplarni tadqiq etish o'ziga xoslikni namoyon qiladi. Chog'ishtirilayotgan tillarda maqollarning lingvokulturologik tahlillari o'ziga hos xususiyatlarda, jumladan, ingliz madaniyatiga xos maxsus joylar ifodalangan GMIEM, nikohning muqaddasligini ifoda etuvchi gender munosabatli maqollar va yaxshi xotinni ulug'lovchi GMIEMlar tashkil etsa, rus madaniyatida kollektivizm, vaqtni chog' o'tkazishni ifodalovchi GMIEM, erkak kishining qadr qimmatini ifoda etuvchi gender munosabatli maqollar va qarindosh urug'chilikni ifoda etuvchi gender munosabatli maqollar ko'pchilikni tashkil etdi. O'zbek madaniyatida milliy obraz va tushunchalarni ifodalovchi GMIEMlar, o'zbek oilasining boshi – erkak kishi ekanligini ifodalovchi gender munosabatli maqollar, oilaviy qadriyatlar va qo'shnichilikni ifodalovchi GMIEMlarda namoyon bo'ldi.

11. Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi maqollar tarjimasida semantik va funksional-stilistik hamda hissiy-ekspressiv mazmunni saqlashda paremiologik ekvivalentlar, paremiologik analoglar, to'liq ekvivalent, qisman ekvivalent, ta'riflovchi tarjima, usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqqligini ta'kidlagan holda, gender munosabatlarini ifodalovchi paremiologik birliklar, jumladan, maqollarning struktural, semantik, lingvokulturologik xususiyatlarini turli tizimli tillarda voqelanishining chog'ishtirma tadqiqi ularning umumiy va o'ziga xos jihatlarni yorqin namoyon etishda ijodiy adaptatsiya (Creative Adaptation) hamda madaniy ekvivalent (Cultural Equivalent) kabi turlaridan foydalanish samaradorligi asoslandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА
ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

АБДУЛЛАЕВА МУНОЖОТ МУХТОРОВНА

**ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПОСЛОВИЦ,
ВЫРАЖАЮЩИХ ГЕНДЕРНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В
РАЗНОСИСТЕМНЫХ ЯЗЫКАХ**

10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и переводоведение

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2021.3.PhD/Fil1971.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека. Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.uzswlu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель: Икромхонова Фируза Икромовна
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: Кодирова Фазилат Шукуровна
доктор филологических наук, доцент

Насруллаева Нафиса Зафаровна
доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация: Намаганский государственный институт
иностранных языков имени Ибрата

Защита диссертации состоится «29» Октября 2024 года в 13⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 по присуждению ученых степеней при Узбекском государственном университете мировых языков (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21. Тел.: (+99871) 230-12-91; факс: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрировано за № 1132). Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21. Тел.: (+99871) 230-12-91; факс: (+99871) 230-12-92.

Автореферат диссертации разослан «14» Октября 2024 года.

(Реестр протокола рассылки № 30 от «14» Октября 2024 года).



И.М. Тухтасинов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
педагогических наук, профессор

Х.Б. Самигова
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
филологических наук, профессор

Ж.А. Якубов
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней, доктор филологических наук,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом языкознании растет интерес к изучению устного народного творчества – одного из факторов, демонстрирующего национальные ценности, культура народа, свидетельствующей о самобытности нации. Пословица - это один из жанров народного творчества, который на протяжении веков использовался не только в живой беседе и взаимной речи, но и в художественных, исторических и научных произведениях, политической и публицистической литературе и весьма активен в наши дни. Изучение и исследование пословиц и народного творчества в целом сегодня очень важно. Изучение пословиц с гендерным компонентом имеет большое значение в области языкознания. Эти исследования широко используются в социокультурном анализе, обеспечивая более глубокое понимание гендерных ролей, ценностей и стереотипов в обществе. Гендерные исследования в лингвистике изучают взаимодействие языка и гендерных ролей в обществе. Язык является важным инструментом формирования и выражения гендерной идентичности. Гендерно-дифференцированные способы использования языка, особенности речи и лексический выбор являются одними из основных тем исследований в этой области.

В мировом языкознании проведено немало исследований в области пословиц (паремиологии), изучения, исследования и сравнительного анализа пословиц и поговорок разных народов. Например, были составлены сборники пословиц и поговорок на разных языках, изданы их словари и энциклопедии. Эти произведения важны для сохранения богатства народного искусства и передачи его будущим поколениям. Фольклористы и паремиологи мира провели сравнительный анализ пословиц разных народов, выявили общие черты и различия между ними. Это помогает выявить сходства и различия между языками и культурами. В то же время существуют различные организации, постоянные форумы и конференции по паремиологии, посредством которых специалисты обмениваются опытом, представляют результаты своих исследований и обсуждают новые научные идеи. **Международная ассоциация паремиологии (AIP-IAP), Междисциплинарный коллоквиум по пословицам (ICP) в Тавире и журнале Proverbium** этот научный журнал публикует исследования в области пословиц и паремиологии.

В области пословиц (паремиологии) в узбекском языкознании выполнено немало важных научных работ. Были собраны и изданы многочисленные словари и большие сборники пословиц и поговорок на узбекском языке. Узбекские учёные глубоко изучили виды пословиц и поговорок, их структуру, правила и другие языковые особенности. Министерством культуры Республики Узбекистан организовано множество мероприятий по сохранению и развитию узбекской национальной культуры, в том числе в области пословиц. В частности, в рамках Навруза, Дня независимости и других национальных праздников проводятся мероприятия и выставки, посвященные пословицам. Во время этих мероприятий народные

пословицы пропагандируются посредством традиционных игр, выставок и художественных представлений.

Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», № PQ-2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», № PQ-3775 от 5 июня 2018 года, «Повышение качества образования в высших учебных заведениях и их комплексное реформирование, реализуемые в стране постановлениями Кабинета Министров». Республики Узбекистан от 11 августа 2017 года № 610 «О дальнейших мерах по обеспечению активного участия в мероприятиях по улучшению», Постановление № 824 от 31 декабря 2020 года «О мерах по совершенствованию системы, связанной с организацией образовательного процесса в высших учебных заведениях», Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 19.01.2022 №34 «О дополнительных мерах по улучшению изучения иностранных языков», одновременно интеграция нашей республики в мировое сообщество в последние годы повышенное внимание к изучению языков, сравнение иностранных языков с узбекским языком в проводимых исследованиях, повышение престижа нашего языка на мировом уровне, полное раскрытие его языковых возможностей определили столь важные задачи.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики I. “Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства”.

Степень изученности проблемы.

